

BEK ALI

MEN AXIR SENMAN



SHE'LLAR



KITOBI M

641
C-80

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"JOD" JAMOAT FONDI

121
6-49

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока


Количество предыдущих
выдач

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	48	49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	60	61	62	63	64	65	66	67	68	69	70	71	72	73	74	75	76	77	78	79	80	81	82	83	84	85	86	87	88	89	90	91	92	93	94	95	96	97	98	99	100
---	---	---	---	---	---	---	---	---	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	-----

MEN AXIR SENMAN!

She'rlar

- 1046 -



TOSHKENT VILOVATI CHIRCHIQ
OLVI VA O'RFTA MAXSUS TALIM MAZIRLIGI
OZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TOSHKENT VILOVATI CHIRCHIQ
OLVI VA O'RFTA MAXSUS TALIM MAZIRLIGI
AXBORT RESURS MARKAZI
2020

BAXSHIYONA OVOZINGNI ESHITDIM

Bek Alining ilk kitobidagi she'rlarini o'qir ekanman, qadim baxshilarning davra olib oqshomdan sahargacha, saharden allama-halgacha, kуни tunga ulab, tunni kunga ulab, insoniyatning astriy va azaliy dard-u armonlarini, ishq-u muhabbatini, mehr-u sadoqatini ifoda etgan sehrli ovozini eshitgandek maftun bol'dim.

Odamlar nega baxshilarning dostonlarini bunchalar berilib tinglaganlar? Buning boisi ularning yuragiga baxshining yuragi mos tush-ganligi, dardlar o'xhashligi, tuyg'ular rang-doshligidir.

3

Shoir Bek Alining mazkur to'plamidan joy olgan she'rlari inson qalb kechimmalari mohir musavvirining chizgan mo'jizaviy suratlardir. Yosh ijodkor hayotni, in-sonlarni, borliqlini yorug' tuyg'ularda ifodalaydi. Uning she'rlari Vatanga, ona tuproqqa, yurt tonglari va tunlariiga, daryolariyu irmoqlariiga, yomg'irlar-u qorlariga jon rishta-lari ila bog'liqdir.

To'plamdag'i she'rlar adabiyot ixlosmandlarining qal-bidan joy oladi degan komil ishonchdamiz.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tarсия qilinib, "ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6473-3-6

*Ot haydagan ertarning poyini o'pib kelding,
Kuzatgan bolang bisyor, barini kutib kelding,
Biri jahongashta-yu, biri jonon gashtadir,
Padarkush bolangi-da aybidan o'tib kelding.*

Bek Ali qisqa vaqt yurtdan uzoqdaligida Samarcandni naqadar sog'inganini o'zgacha intiqlik bilan ta'riflaydi. Inson onasiga bo'lган sog'inchni shunday yolvorib ifodalashi mum-kin.

Sen tomonga mo'lirab boqsam, ko'rinasammi?

©B. Ali, 2020
© "Adabiyot", 2020

Ayrim birinchi to'plamlarning bir-ikkitashe'rini o'qib quvonib ketasan. Afsuski, qolgan sahifalaridan tuzuk she'r topolmay qynalasani. Bek Alining to'plamini varaqlar ekanman, meni yuqoridagi hadik butunlay tark etdi. Muhabbat haqida oshiq dilning o'ttanib "Seni unitolmayman, sendan kecholmayman" deguvchi satrlarini va shunga o'xhash armonli yozg'irishlarni ko'p eshitganniz, ammol Xudo qo'l uchida bag'irga chizib qo'ygan rasmni o'chirishga o'chirg'ich topa olmayotgan oshiqona she'riy ifodani birinchi bor eshitishim.

*Mayli, qismat qilmish judo,
Lek bag'rma qo'l uchida
Sening rasming chizmish Xudo,
O'chirg'ichin topolmasman.*

4

Bek ALI

Tunmani!
Tunligimdan juda mammumman!

O, tongman, uyg'onib izlaysan meni,
Bog'chada gullarga so zlaysan meni.

Mening menligim yo'q, men axir semman!
"Kimming ko'zlaridan izlaysan meni?"

Bek Alining she'rларини о'зимни унитиб о'qidim. О, Onajonim, O'zbek she'riyati! Bir yaxshi shoirni qaysi bulbul qo'ngan beshigingda ulg'aytiribsан?! Mangu o'mas buloqlaring - baxshilaringga ning sehrli ovozларини jism-u joning joylabсан. Ta'zim senga! Bizni yangi ovoz va yangi g'unchchalar ochilgan qalb gulzori bilan siylab marhamat ko'rsatibsан.

Uning kelajakda adabiyotimizing Bek Alisi bo'lib qolishida Alloh madadkor bo'lsин.

Zulfiya MO'MINOVA,
*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi, shoira.*

Bek Ali bir she'riga o'zbek she'riyatining darg'alaridan biri Rauf Parfining "Kimming ko'zlaridan izlaysan meni?" satrini epigraf qilib oladi. Yosh shoir ulug' shoir Rauf Parfining ruhidan yiroqlashmasdan, uni takrorlamasdan yangi she'r taqdim etadi bizaga:

*Qochib qayga bording! Dunyo, gardunman!
Bag'rinda uxlagin, bag'rimda uyg'on,*

W. amqarli qayga bording! Dunyo, gardunman!
Bag'rinda uxlagin, bag'rimda uyg'on,
Qochib qayga bording! Dunyo, gardunman!
Bag'rinda uxlagin, bag'rimda uyg'on,

SAMARQAND

Manglayimga qo'l tirab boqsam, ko'rinasanmi?
Sen tomona mo'l tirab boqsam, ko'rinasanmi?
Uyqusiz kechalarining goh adog'i ko'rimmas,
Balki, kunduzi chiroq yoqsam ko'rinasanmi?
Sendan nishon axtarib ko'zim toldi, Samarqand!
Bolasidan-da g'arib onam qoldi, Samarqand!

Ot haydagan erlearning poyini o'pib kelding,
Kuzatgan bolang bisyor, barini kutib kelding.
Biri jahongashta-yu, biri jonongashtadir,
Padarkush bolangni-da aybidan o'tib kelding.
Sendan nishon axtarib ko'zim toldi, Samarqand!
Ketmon bilan aldanib otam qoldi, Samarqand!

6

Bibixonimdan boshlab yor kutadi ayollar,
Bahorda ketsa eri, qor kutadi ayollar.
Iqbol kutmas eridan, ro'zg'or kutmas eridan,
Bir erkakka yarasha or kutadi ayollar.
Sendan nishon axtarib ko'zim toldi, Samarqand!
Paxsa uyday yasanib yorim qoldi, Samarqand!

Huvullab o'tar umrim, guvullab o'tar umrim,
Diydoringga vaqt topmay, zuvillab o'tar umrim.
Goh ishxona, goh ko'cha, goh shinam kafelarda
Gap sotib o'zga umrin o'g'irlab o'tar umrim.
Orzular meni turli ko'yga soldi, Samarqand!
Dala-dashtda qo'y boqb do'stim qoldi, Samarqand!

Rus dalasin poyida ko'rifazlar ko'rinar mish,
Ko'k ko'llar ko'rinar mish, ko'p g'ozlar ko'rinar mish.
Men tug'ilgan tuproqda avliyolar xoki-yu,
Osmoniga qarasang, gumbazlар ko'rinar mish,
Sendan nishon axtarib ko'zim toldi, Samarqand!
Yana qayga sochilgan tuzim qoldi, Samarqand!

Temurbek qo'shinlari tilloga to'yan ekan,
G'alaba-yu ayol-u urhoga to'yan ekan.
Bir savol qynar faqat, yori qolib ikkiyat
Tug'ilgan farzandiga qanday nom qo'yan ekan?
Sendan nishon axtarib ko'zim toldi, Samarqand!
Suratimni ko'tarib bolam qoldi, Samarqand!

Goh el kezib toparman yo'qolgan ilhomimni,
Muhabbat borasida chala imthonimni,
Iztirob ado qilib va firoq ado qilib,
Musofirlirk bo'g'zimga keltirganda joniimni,
Sendan nishon axtarib ko'zim toldi, Samarqand!
Lekin qaytishga qaysi yuzim qoldi, Samarqand!

7

Bek ALI

MEN TUG'ILGAN QISHLOQ HAQIDA TASVIR

Boshimga kelib qo'nar
Hali o'limgan qarg'a.
Uch yuzga yetib yoshi,
Bulbul bo'limgan qarg'a.

Menda tilmas, yaproqlar
Yurak zarbin chaladi.
Mening qishloq haqida
Ertaklarim qoladi.

Tutun o'rlab o'ralar
Shamol belanchagida.
Mushugimiz bolalar
Issiq pechka tagida.

Paxta chigitlar onam,
Goh deraza shag'llar.
Tashqarida daraxtga
Qo'nib qarg'a qag'llar.

Menga hammasi singdi –
Qarg'a qag'llashi-yu,
Derazaning ko'zları
Timmay shag'llashi-yu.

Tom boshida mo'ridan
Tutunning o'rashlari.
Pechkamizga qalangan
O'tinning gurlashlari.

Tasvirlarga burkanib
Ketaman loy ko'chada.
Bir-biriga suyanib
Tutun puflar uychalar.

Goh tutab yashayapman,
Goho yonib ketaman.
Goh dalada tevadek
Yolg'iz qolib ketaman.

TOPOLMASMAN

Deysan: Hayot gulgun, jonim,
Gulgun desam, bugun, jonim,
Hayotim ming tugun, jonim,
Ikti uchim topolmasman.

Qara, gullar mavhum emas,
Deding: yo'lllar muhim emas,
Qayerdadir olsang nafas,
Seni nechun topolmasman?

Mayli, qismat qilmish judo,
Lek bag'rima qo'l uchida
Sening rasmning chizmish Xudo,
O'chirg'ichin topolmasman.

10

Bek ALI

"Kimming ko'zlaridan izlaysan meni..."
Rauf PARFI

Olis makonlarda bo'lib faromush,

Bog'chalarga tushib qolganda yo'lling,
Atirgul qoshida turgancha xomush
Qizil yaproqlarin silarmush qo'lling.

Ko'zlarin silarmush, qoshin silarmush,
Tikon tilib-tilib, loshin silarmush.
Nozik barmoqlaring qismatdoshimning –
Bechoraning yolg'iz boshin silarmush.

Men-ku, jununvashman, men-ku, Majnunman,
Qochib qayga bording! Dunyo, gardunman!
Bag'rimda uxlagin, bag'rinda uyg'on,
Tunman!

Tunligimdan juda mammunman!

O, tongman – uyg'onib sizlaysan meni,
Bog'chada gullarga so'zlaysan meni.
Mening menligim yo'q, men, axir, senman!
Kimming ko'zlaridan izlaysan meni?



*

OG'IR SAVOLLAR

(Xalqona)

Qora tunning bag'rin yorar it hurib,
Qora tunga bag'rin yorar it hurib.
Yo qora tun it bag'rida hurarmi,
Yo it qora tun bag'rida o'lirib...

Yo'q, bilmayman, xonam to'la kitobmi,
Yo kitobga to'la xona edimi?
Bizdan kechgan qizlar ona bo'p qopti
Yoki kechmasidan "ona" edimi?

Ming o'rgilib, ming aylandim dunyoni,
Quyosh bilan teng aylandim dunyoni.
(Asab buzib, hargiz torlik qilmadim)
Dunyo qadar keng aylandim dunyoni.

Uyda qolsam, non, tuz-u choy yo'qmidi?
O'n beshindan porilagan oy yo'qmidi?
Menam senday oshiq keldim, Algomish,
Zindoningda ortiqcha joy yo'qmidi?

O, onam-a, bag'ring o'rtab dog'lading,
Yo'q, bag'ringni o'ttar edi dog'laring.
Larzon-larzon mevalari to'kilib
Qaytishimni kutar edi bog'laring.

Men, jununvash to'nin soxta kiydimmi,
Bo'za quygan xonaqohda kiydimmi?
Nima bo'lsa bo'ldi, endi kiydim men,
Lek bilmayman, o'zim xohlاب kiydimmi?

Minay desam, boqqaning toy yo'qmidi,
Toy ushlarga yoki Qultoy yo'qmidi?
Menam senday mag'rur keldim, otam-a,
Qo'rg'oniningda ortiqcha joy yo'qmidi?

Safar deding, menam badar ketarmان,
Toshim tushgan Shoshga qadar ketarmان.
Umrin qadar ketayapman, o'yasam,
Ko'zdan qochib qoshga qadar ketarmан.

Shahzod etib qorisang, loy yo'qmidi,
Shahzodasiz qolgan saroy yo'qmidi?
Zarra omad bitar bo'lsang, Xudojon,
Peshonamda ortiqcha joy yo'qmidi!

SHOIR EMASDIM UNDA

Shoир emasdим unda,
Bilmас edim yurtлами.
Faqat tanir edim men
Yonib ketган tutлами.

O'tlayotgan u sigir
Buzog'iga mehribon.
Men bilan mol boqqan qiz,
Molboqar qiz Gulandom.

Kunlar sovuq. Kuz edi,
Gulxan yoqib isindik,
Gulxan yondi yuzingdek,
Kunlar sovuq. Kuz edi.

Cho'g'larni ishonmadik
Qora tuproq tagiga.
Amallab solib ketdiik
Qari tut kavagiga.

Maktab bordik shu yo'ldan,
Yorilgan lab qonardi,
Yo'l chetida – paxmoqsoch,
Qariya tut yonardi.

Shoир emasdим unda,
Deyolmadim "Bu yurak!"
U vaqt ishqning sha'niga
Keltirmagan edim shak!

UYGA VAZIFA

Tuni bilan sevalab yomg'ir,
Tongni gullar ifori tutdi.
Maktab tomon bolakay, dovdir,
Orzularin ko'tarib o'tdi.

So'ogra peshin u hardamxayol,
Qaytdi uygа kavshangancha non.
Bunda, qurib qaqshagan orol
Kitobida saqlar edi jon.

Uy vazifa va ushbu sana
Daftarida etilgandi qayd.
Kechga shamol qo'zg'oldi yana,
Chiroq o'chdi dars tayyorlar payt.

To tonggacha timmadi yomg'ir,
Tirqishlardan shamol cho'zdi qo'l.
Bola sho'rlik muallimiga
Ne deyishin o'yillardi nuqlu...

Ertasiga doskada g'amgin,
Ko'z uzmadи sinf polidan.
Lek ustozga og'iz ochmadi
Qishlog'ining og'ir holidan.

O'sha onda u topmadi so'z
Yuragini kuydirgan g'ashga.

SINGLIMGA MAKTUB*(Baxtinisoga)*

Axir, yuzi chidamadi, tuz
Totgan tuprog'iga tuflashga.

Ha! Men edim o'sha bolakay,
Ovulga tosh otib bo'lmaydi.
Vatan agar do'zax bo'lsa ham,
O'zgalarga sotib bo'lmaydi!

Bek ALI

16

Ketib borar avtoldarda, ulovlarda,
Gam o'zimda, shodliklarim birovlarda,
Sen sezasan, men bilaman, ona singlim,
Hayrathlarim, hasratlarim ketib borar,
Senga qachon bu xatlarim yetib borar.

17

Yarim yo'lida, bekatlarda to'xtab-to'xtab,
Beg'amgina bolachaday uxlab-uxlab,
Shoshmaydimi senday go'zal qiz yoniga,
Kerak bo'lsa, yelkasiga qanot bog'lab.
Burgutdayin haybatlarim ketib borar,
Senga qachon kalkatlarim yetib borar.

Kechagina yosh edim-u, ko'ksim to'lgan,
Yuragimda, esiz, qancha orzu bo'lgan.
Baxtni faqat mehnat bilan topmoqchiydm
O'nab-kulib yurmoqchiydim men sen bilan
Baxt ortidan zeb-u zarim ketib borar,
Senga qachon ro'yxatlarim yetib borar.

Uxlab yotar Alpomishlar qudug'ida,
Hayqirishlar va yonishlar, qudug'ida.
Rashk qilaymi Barchinoyni Ultontozdan
Yarashgaymi qizg'onishlar pul yo'g'ida?

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RITA MAXSUS TA'LIM VAZIFI
TO'SHKENT VILDOVATI CHIRCHI
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

MANGU TONMOQ QO'SHIG'I

Singlim, bo'yи osmonlarim ketib borar,
Senga qachon dostonlarim yetib borar.

Biz-ku cho'g'ni, kulni o'ynab katta bo'lдik,
Gohi she'rda, goh qalamda, xatda bo'lдik.
Ma'yusgina, diligirgina bolachalar,
Hayot ko'zni ko'kartirdi - shatta bo'lдik.
Musichaday insonlarim ketib borar,
Senga qachon bo'ronlarim yetib borar.

Yetib borar goh o'ngidan kelgan tushlar,
Ozod osmon kengliklarin tuygan qushlar:
Sen har kuni soyasida xayol surgan
Yolg'izgina daraxtga in qo'ygan qushlar.
Balki, oshkor, balki, pinhon ketib borar,
Borganda ham Shoir-u shon yetib borar.

18

Beck ALLI

Lovulladim muz shaharda
Qaro kechda, tong saharda.
O'tin bor-u cho'g' qidirib
Hamma sarson bir mahalda:
Mag'rib, mashriq tomonlar jim,
"Sen olovsan!" demas hech kim.

19

Janub ko'chdim, timmay uchdim,
Ko'kdan oyni olib tushdim.
Parvoz lozim degan chog'i,
Qush o'tsa ham yetti pushtim:
Hatto oy jim, osmonlar jim,
"Manov qushdi-i-r.." demas hech kim.

Qunishaymi, "qurbanman" deb,
"Nohaqlikkа o'lpomman" deb.
"Shu vatanga erk talashgan
Qodiriymان, Cho'lpomman" deb
Yig'lab bersam senga, singlim,
"Ko'ngli bo'shdир" demas hech kim.

Hadiksirar har so'zingdan,
Suv ichmaydi hovuzingdan.
Bu olamni tushummayan,
Kechmay turib to o'zingdan.
Olisdan ko'z suzishingdan
Va sollanib yurishingdan

CHUMOLI

Nega, nega seni, singlim,
"Hurkak ohu" demas hech kim?

Tan olmaydi, xoh chinor bo'l,
Tashna bo'lgin, suvg'a zor bo'l,
Lek bahorda kurtak yozib,
Saratonda soyador bo'l,
Boshga laylak qursa ham in,
"Sen daraxtsan" demas hech kim.

Do'stim, alam qilar ba'zan,
Yupanch kutib to'rt tarafdan,
"Bolam-chaqam" deb yugurib,
Odamlikk'a da'yogarsan.
Sabrkosam to'ldi lim-lim,
"Odammisan?!" demas hech kim.

Lovulladim muz shaharda,
To'rt tarafi so'z shaharda.
Ko'zgu kerak emas, do'stim,
Tollib yotar ko'z shaharda,
Hamma loqayd va hamma jum,
Kimligini bilmas hech kim.

Buncha chiranasan, chumoli?
Yashasang bas baxtiyor.
Qara, harir ro'molli
Kapalakning baxti bor,
Buncha chiranasan, chumoli!

O'tga urib o'zingni,
Cho'g' sug'urding toshlardan.
Nuri ketdi ko'zingni
Va ayrilding sochlardan,
O'tga urib o'zingni.

Qaysi bildi, kim bildi?
Dashnom to'ldi quloqqa.
Tumorchadek o'g'ilni
Tashlab kelib qishloqqa,
Qaysi bildi, kim bildi?

Joning topmaydi orom,
Bir kulib uxlamaysan.
O'zing ayt-chl, nimani
Izlashdan to'xtamaysan?
Joning topmaydi orom...

Hammasi oddiy hol-ku,
Daraxtning gullashi ham.
Silliq taqvodor tulki

Dumyoni pullashi ham,
Hammasi oddiy hol-ku!

Orzu-havas deysan-da,
Chumoli – oshnaginam.
Peshonangda bo'lganda
Chiqararding qanot ham,
Orzu-havas deysan-da!
Buncha chiranasan, chumoli?!

Bitta g'isht qo'y'mading akangga o'xshab.

Sendan xavotirman...

Sendan xavotirman, mitticham – yalpiz,
Kim silar boshingni, men bo'lмаган kun.
Hozir azob cheksang, birgay yig'laymiz,
Quvonsang, ozgina yayrashim mumkin
Yoki aldash mumkin qismatni hatto.
Sen ham shu akanning g'o'r singilchasi,
Tilana olmaysan o'lguningcha to.

Sendan xavotirman...

Sendan xavotirman, bahor kelmasdan
Shoshilib ko'klagan gulim – boychechak.
Ertaqa ne bo'lar, buni bilmasman,
Har holda, xiyomat qilmasang kerak?
Ortimga qarasam, yashagim kelmas,
Sen ham shu akanning g'o'r singilchasi,
Oldinga ham qadam tashlaging kelmas.
Sendan xavotirman...

Sendan xavotirman, bahor kelmasdan
Shoshilib ko'klagan gulim – boychechak.
Ertaqa ne bo'lar, buni bilmasman,
Har holda, xiyomat qilmasang kerak?
Ortimga qarasam, yashagim kelmas,
Sen ham shu akanning g'o'r singilchasi,
Oldinga ham qadam tashlaging kelmas.
Sendan xavotirman...

Sendan xavotirman, gulim – sumbula,

SENDAN XAVOTIRMAN

(Singlim Feruzaga)

Sendan xavotirman, nilufar gulim,
Bugun borman, mening ardog'imdasan.
Ertani o'ylasam, buzilar ko'nglim,
Bu buzuq dunyoda kimga borasan,
Kimlarga nolisyam, kimga yig'laysan?
Sen ham shu akanning g'o'r singilchasi,
Non ham g'aqlamaysan, pul ham yig'maysan.
Sendan xavotirman...

Sendan xavotirman, nastarin gulim,
Iforing tutganda tong pallalari.
Mendan umid uzsang boshpana so'rab,
Yo'l olar ekansan qay kulba sari
Yoki qay bekatda qolarsan to'xtab?
Sen ham shu akanning g'o'r singilchasi,

Sendan xavotirman, gulim – sumbula,

O'Z QOVURG'AM

Mehr berolmadim, vaqtim bo'lindi,
Na shodlik ulashdim davlatim bilan,
Saroyim bo'lindi, taxtim bo'lindi.
Rahnamo bo'lindi el-u ulusga,
Sen ham shu akaning g'o'r singilchasi,
No'noq tug'ilgansan havoyi so'zga.
Sendan xavotirman.

Bir og'iz so'z bilan aytmoqchi edim,
Sendan xavotirman...

Senga kuyaman.

Sen uchun har mahal nonning yarmini
Va qolgan umrimni saqlab qo'yaman.
Yolg'iz yashamoqni etgandim odat,
Sen ham shu akaning g'o'r singilchasi,
Hayot yo'lling tanholikdan iborat.

Sendan xavotirman...

Bek ALLI

24

Shaytonni hushyor ayladi,
Ne desa, inkor ayladi.
Bir hovuch tuproqdin meni
Tangrim qorib bor ayladi.
Bu jahonda edim yolg'iz,
Yig'layverdim, totmadim tuz.
Bir uxladim. Keyin Ul o'z
Qovurg'amga lol ayladi.
Qaylardasan, doding bormi,
Meni eslar yodding bormi?
"Hijron" degan fandin seni
Ayt, zarra savoding bormi?
Aytgil, nechun chekmaysan g'am?
O'ylar bo'lsam, axir, bu dam:
Vo darig'o o'z qovurg'am
Bag'rimni shudgor ayladi.

TENGDOSHLARIM QO'SHIG'

Mengacha yetmadi Temurning tig'i,

Mengacha yetmadi Bobur sadosi.

Endi mening she'r deb bilganim yig'i,
Endi men shunchaki kafan gadosi.

Mengacha ibrat ham, fitrat ham bo'ldi,
Mengacha nafrat ham, gaflat ham qodir.

Lekin men baribir padarkush bo'ldim,
Sumbatim shalpayib qolgan bahodir.

Mengacha Mashrabni oqladi tarix,
Mengacha Majnunning yo'lli fidoyi.

Dunyoga keldim-u, muhabbatni ham
Men uchun harom deb aytdi Xudoyim.

Sizgacha horar yo'l go'yoki sirot,
Na menda xachir bor, na-da bor toyim.
Navoiyga torlik qilgandi Hirot,
Menga esa dunyo tordit, guloyimi!

Mengacha avlyyo ishi g'am edi,
Mengacha shoirning xayoli uchqur.
Qanday oh chekitishni bilmayman endi
Va yozgan-chizganim hammasi bir pul.

Endi bilib qo'ygil, ey manglayi sho'r,
Endi bilib qo'ygil, ko'zlar mustar.

Mengacha Qorajon nobud bo'libdur,
Mengacha qolmagan dunyoda do'star!

Kuzzda kuzatganim qushlar qaytmadi,
Qaytmadi ko'nglimga bir ilohiy nur.
Hovlindagi daraxt shoxiga qo'nib,
O'zga yurt haqida ertak aytmadı...

Aytmadı, mensizlik azobmi, yoron?
Ko'kdagi oy midir, oftobmi, yoron?
Ketguncha lof urib vafo haqida,
Mengacha va'dalar qop-qopmi, yoron?

Mengacha yozildi ilohiy kitob,
Mengacha ichildi masih quygan may.
Bu qanday bedodlik, yuzlari oftob,
Menga kelganida topilmas labbay?



IQROR

Bu giryona ellara
Giryon boqaman doim,
Bu hayrona ellara
Hayron boqaman doim.

Suvog ko'rmagan uyg'a
Qaldirg'ochlar in qo'ygan,
Men ham tushib shu ko'yga
Vayron boqaman doim.
Kibr shamoli esdi,
Yutmagan zot qolmadi.
"Manfaat" so'zin esda
Tutmagán zot qolmadi.
Tuproq edim, boshimga
Chiqmagan zot qolmadi.
Hatto bosh ko'tarib ham
Arzon boqaman doim.

Ey, yalpizni erkabal,
"Bolam" degan ona yer,
Kenja qizin erkabal,
"Onam" degan ona yer,
Olislarga tikilib
Yelkalarim mung'ayur.
Botayotgan quyoshg'a
Alvon boqaman doim.
Kechir, menga dard berib
Darveshga do'ndirgan zot.
Dashtday qaysar ruhimda

Nilufar undirgan zot.
Ba'zan o'zim chaqirgan
Qismatining dastidan "dod!"
Deb sening ko'zlaringga
Yolg'on boqaman doim.

KUZ

Anorlarning ko'kragi
Yorilguday, qarasam.
Olma nobud, tuproqqa
Qorilguday, qarasam.

Qarasam, yaproq so'nggi
Tilovatga shaylangan.
Daraxt esa bugungi
Ahvolimga aylangan.

Sen qaydasan, bog'bon qiz?

TENGQURLARIMGA MASLAHAT

Agar hayot bo'lsa, bobom aytardi,
 Qaysi yo'l adolat, qaysi malomat.
 Meni olslarg'a uloqtirganin
 Qaysi g'ussa yoki qaysi "karomat".

Agar hayot bo'lsa momon bechora,

Nasihat qilardi tanglay'i qaqshab.

Shunda yurmas edim katta shaharda
 Sutdan qolib ketgan buzoqqa o'xshab.

Osmonlar rangini yo'qotgan kecha

Va yo kul sepilgan bechora boshlar.

Azobdan sochlari oqargunicha

Sharob simirguvchi qiyofadoshlar.

Yuragim og'rig'i,

Ko'zim achishi,

Ba'zi oqshomlarda uyqu qochishi,
 Kimningdir shoirning xatolaridan
 Pana-pastqamlarda og'iz ochishi,

Balki, bo'lmas edi,

Yarimjon bo'lsam,

Ular mangu bo'lsa, hech qachon bo'lsam.

Bu dunyoda yolg'iz men yomon bo'lsam,
 Qachondir yiqilsam va tamom bo'lsam.

"Agar hayot bo'lsa.."

demoqni tashlang,

Tuproqda hech kimni tinglay olmayman,
 Siz qanday edingiz, o'shanday yashang,
 O'lsam, boshqa odam bolib qolmayman!

Yozganim o'zimga, ko'zoynak ko'zimga,
 Sarmast chog'larimda - yurak so'zimga,
 Xayoliy bichilgan ko'ylik qizimga
 To'g'ri kelmadi...

Shunchasi yetmaganday -
 Gam ustiga yana g'amday,
 Seni topdim deganimda - yulduzing
 Yulduzimga
 To'g'ri kelmadi.

Telefon, karmomin, lash-lushlarimi,
O'shanday yig'layman, shunday bo'zlayman,

Shunday hayqiraman, shunday kulaman.
Keyin bir o'zimga kelgan chog'imda,

Pufaklar ko'tarib yurgan bo'laman.
Rassomlar ishiga bo'lgancha maftun

Xayol qatlaringa semi chizarmen.
So'ngra do'konchada qurol o'qtalib

Temir quyonchaga o'qilar uzarmen.
Velasiped uchmoq, o, rohatijon,

Ayniqsa, ko'zingni yumib olganda.
Yiqilish oldidan uyg'onar vijdon,

Qo'rma, men har safar omon qolganman.
Qushlarga boqqanman - ular farishta,

Ular mo'min-qobil, ular ko'ngilchan.
Ular ko'p uzoqqa uchib ketmaydi

Bag'ridan joy bergen daraxtlaridan.
Men esa adashdim, qanot chiqarib

Uchdim olisdag'i orzular sari.
Bu yo'lda juda ko'p nuqsон orttirdim,

Lekin manzil olis tuyular hali.
Mayli, tushkun gaplar menga yarashmas,

Seni bezdiradi yig'loqi oshiq.

Toshkentning eng zavqli tarafi shuki,
Puling bo'lsa, hamma eshiklar ochiq.

Kinozal yonidan shundoq o'tganda,
Hashamdar kafsega qayrililar bo'lsang,

Anov, kimyogartar idishin ushlab
Baxtiyor jilmaygan men edim, bilsang.

Sekin tun o'rmlalar oyna ortida,
Chiroylar jimirlar, odamlar o'tar.

MEN SENGA TEATR QO'YIB BERAMAN

Azizam, go'zalim, munisam, gulim,
Zerikib ketdingmi, xonalar tormi?
Meni sog'indingmi yoki dunyoda
Mendan ham muhimroq o'yloving bormi?
Shovqinli kunlarda, ola-tasirda
Mahkum malikadek sochlaring o'rib,
Jamoling ko'rinar olis qasrdan,
Qo'l siltayman deraza yonida turib.
Surbetligim uchun meni afu et,
Yig'lab sevolmayman, bo'zlay olmayman
Va butun dunyoga g'ashiqqan itdek
Egam chorloviqa quoq solmayman.
Afsus, jaangchi bo'lib tug'ilolmadim,
Temirchi emasman, bilagim bo'shang.
Men senga teatr qo'yib beraman,
Ro'zg'or yumushidan bo'shagan bo'sang.
Sen uchun betayin shoirmam-u, lek
Tonglarga hokimman, tunga soqchiman.
Parda ko'tarilgan sahnadagidek
Brodveyni senga eslatmoqchiman...

Yerosti yo'lida gitara chertar
Turqi sovuq, ammo ovozi shirin
Sochlari hurpaygan uch-to'rt yigitlar
Menga uzatishar pivodan birin.
Keyin jo'r bo'lamiz, yangraydi qo'shiq,
Unutib ishni va trashvishlarimni.
Sozning g'ilofiga uloqtiramani

BIR YOMG'IR YOG'SAYDI

"Bir yomg'ir yog'saydi,
timmay yog'saydi..."
Abdurashid Suvonov

Go'zal ofisiantka, juda sabrsiz,
Hisob so'rashimni ichikib kutar.
Balki, boshqa narsa, balki, boshqa so'z
Aytishimga umid bog'layotgandir.
Bechora chiroyin qiladi ko'z-ko'z,
Bekorga ko'z qirin solmayotgandit...
Xullas, yana o'shayarim-yalang'och
Qizlar orasida tashlayman odim.
Keyin lug'atimdan sening ismingni
Va uyim manzilin topolmay qoldim.

Shunaqa,

Poytaxtda shunaqa edi,
Hamma tashvishlardan xoli bo'lardi.
Hatto tilanchining Xudo yuqtirgan
Ovozi bo'lardi, tori bo'lardi.

Shunaqa,

Biz juda baxtiyor edik,
Hozir jangdan qaytgan askarga o'xshab
Ko'nglimiz tusagan taomni yerdik
Va go'zal qizlarga otar edik gap.
So'ng birdan zaldagi chiroqlar yondi,
Olqishlar chalindi, hamma qo'zg' oldi.
Sahnadagi bo'm-bo'sh Brodvey bilan
O'sha sadoqatli qushchalar qoldi.

Azizam, go'zalim, munisam, gulim,
Zerikib ketdingmi, xonalar tormi?
Ayt-chi, qishlog'ingda Brodvey yoki
Begalining biror musxasi bormi?!

34

35

Gunohim yelkalab o'tarman bot-bot,
Hayosiz lablardan izlarman novrot.
Bu osiy boshimga, ey yaratgan Zot,
Bir yomg'ir yog'saydi, timmay yog'saydi.

Qay kun kiprigingda nammi, ko'rgandim,
Meni deb chekilgan g'ammi, ko'rgandim?
Ona, yamoqlarim qaqrab turgandim,
Bir yomg'ir yog saydi, timmay yog saydi.
"Yashimman!" dedim-u bulutni kesdim,
Ota, dag'al bo'ldim - sukutni kesdim.
Soyangda soyalab, sen - tutni kesdim,
Bir yomg'ir yog'saydi, timmay yog'saydi.

Maysalar qaytadan tutar emish bosh,
Bilmadm, qaytadan bo'larmanni pok.

Bel ALI

Yana bulutlarsiz qoraymoqda qosh,
 Qaydadir, sevgilim, ko'zyoshing halok.
 Ezg'in tuyg'ularing, miskindir bardosh,
 Nahot ko'z yoshingda etdim ishtirok?!
 Yana tongni kuttidim qoqmasdan mijja,
 (Xira kengliklarda tuman oqsaydi.)
 Sevgim, menim bo'ldi changigan ko'cha,
 Bir yomg'ir yog'saydi, timmay yog'saydi!..

Qachonlardir sel kelib qishlog'ini olganday,
 Keng dalada chayla-yu to'rtta cho'ponqolganday,
 Xudoyim kosasiga ko'zyoshini solganday,
 Kechib qarindoshlardan ichaverdi bir shoir.

Shayton aytdi: "Rohat bor, kel, o'ynaymiz-kulamiz,
 Bu besh kunlik dunyoda og'a-ini bo'lamiz!"
 Uning qoshida iblis ip esholmas, bilamiz,
 Pay'ambardan qolishmay ko'chaverdi bir shoir!

Alam qilar, gar ona bolasini umutsa,
 Tug'ruq chog'i azob-u nolasini umutsa,
 Samarcandning bag'rida o'tgan damlarin qo'msab,
 O'z vatanin yodidan o'chaverdi bir shoir!
 Hammasinga qo'l siltab ichaverdi bir shoir!

Unda qolgan qadrdon, unda qolgan xayoli,
 Unda qolgan uch jujuq erkatalib ayoli.
 Gohida o'rindiqdan turmoqqa kelmay holi,
 Yettingchi osmonida uchaverdi bir shoir.

Sizga aytmas, ichinda ajdaho o't puflaydi,
 Sizga aytmas, ichinda Sulaymonlar uklaydi.
 Sizga aytса, yer sharin aylanishi to'xtaydi,
 Falakning jumbog'ini yechaverdi bir shoir.

SHOIR HAQIDA AFSONA

QIZIMGA MAKHTUB

Bo'ldi, unga gap sotmang dunyoning torligidan,
 Layloning soddaligi, Majinuning xorligidan.
 Hali uning qotmagan yuragi borligidan
 Simyog'ochani "tug'am" deb quchaverdi bir shoir!
 Dush kelganni do'st bilib ichaverdi bir shoir!

Berk ALI

38

O'zimga eng katta jazo o'zimman,
 O'zimning eng katta dushmanim o'zim.
 Quralay ko'zingdan, shahlo ko'zingdan
 Kichikroq olchalar pishdimi, qizim?

Men yo'qman, allaga burkanar kulba,
 Yodingga tusharmi qaysidir so'zim?
 Yayrah kulganingda bog'da mevalar
 Bag'rimday uzilib tusharmi, qizim?

Men yo'qman, qaldirg'och qaytadi lekin,
 U uchun mo'tabar ayvondagi in.
 Sen undan dadangni so'rasang sekin,
 Inlari o'prilib tushdimi, qizim?

Men yo'qman, bir kuni yo'qolar soyam,
 Qaysidir she'rni deb qarodir yuzim.
 Bir daraxt bo'lardi "qaroli" degan,
 Hali ham mevasi qaromi, qizim?

Yodimda, tumanday changigan ko'cha
 Va tayoq ko'tarib quvlagan qo'shni.
 Sevaman, shira tushgan ko'ylagingga
 Sog'inib-sog'inib xayol surishni!

Sevaman, ariqnig yonida yalpiz
 Chuqur xayollarga berilgan kunnis.

GULIJON

Nahottki unutmoq mumkindir, ayt-chi,
Sening harorating tushmagan tunni?

Bilaman, dunyoning to'rt tomoniga
To'rtta unsur kabi sochilgan tuzim.
Ilk bor qadam qo'ysang ilm komiga,
O'zim o'rib qo'ysam sochingni, qizim!

Bilmam. Nasib etar balki u kun ham,
Balki, safarlar ham topar nihoya.
Ayt-chi, daydi itlar qaytib, bugun ham
Jizg'anak qishloqda izlarmi soya?

O, qizim, shamollar topolmas makon,
Gar oshiq bo'lmasa, bulbul balodir.
Ba'zida ariqqa botirilgan non
Bebosh bolalarning aqlin olodir.

Qishloqda bir Xudo bo'ladi, ishon,
Qolganlar biz kabi motamsarodir.
Sen uchun olisda saqlayrapman jon,
Lekin bu yerlarda hamma "Xudo" dir.

Boshyalangsan, soching ho',
Suvga sho'ng'ib olgan yo'.
Dunyo g'uborlardidan
Qutulish bilan mashg'uł.
Butun tabiat sarson,
Yomg'ir yog'di, Gulijon.

Bu borliqmiz?.. Bir tang!
To'n yarashmas sallamga.
Goh bo'zlatsa bitta non,
Mehr qayda sanamga.
Ko'zyoshim topmay makon,
Yomg'ir yog'di, Gulijon.

Yo'q, singiljon, jilmayma,
Buni Xudo bilmayma?
Yashirib nima topdim,
Ochiq aystsam, kulmayma
Ustimdan uch-to'rt nodon?
Yomg'ir yog'di, Gulijon.
Yalpizga sig'inaymi?

ANGLASH

Yolg'izga sig'inaymi?
"Yuragim to'kildi" deb
Yo qizga sig'inaymi?
Ohimga to'lib osmon,
Yomg'ir yog'di, Gulijon.

G'o'zaga egilgan u
Onamday yig'lamsirab.
Osmonda qora bulut
Oyog'in bosar sudrab.
Egathar zahridanmu,
Yorilib ketgan tovon...
Yomg'ir yog'di, Gulijon.

Ko'cha chiroqlarining
Tanasidan tomchilab,
Yomg'ir katta shaharni
Bir lahzada etdi zabt.
Goh kechki shom toliqqa
Ko'zlariningday mo'lirab
Yo bog'ini izlagan
Senday qizga kuyibmi?
Yoki menday qo'llini
Iyagiga qo'yibmi?
Chaqmoqning oloviga
Tamakisin tutatib,
Qurum bosgan o'pkadan
Gumbur-gumbur yo'talib.
So'ng jimgina, bezabon
Yomg'ir yog'di, Gulijon.

Ko'zlar o'sha, qoshlar o'sha,
Sochli-sochszis boshlar o'sha,
Bahor o'sha, ayvon o'sha,
Qaytgan qaldirg'ochlar o'sha.
Tun zuлmati o'zgarmagan,
Oy tirishar, shamol yelar
Va eshilknинг tirkishidan
Kuz yo'llagan sovuq kelar.
It ham o'sha - akillaydi,
Keyin yomg'ir chakillyaydi.
Paypoq kiymay yurgan bola
Kechga borib kakillyaydi.
Qaytib kelar terimchilar,
Qiz-u o'g'lon, yosh-u qari.
G'iybatchilar, irimchilar
O'sha-o'sha, bari-bari...
Kuni bilan yulib-yulib,
G'o'zazorda javlon urib,
Hatto tabelchilar o'sha -
Tarozidan urib-urib.
Osmon o'sha, yer o'shadir,
Yarim-yuluq she'r o'shadir.
Xotinining topgan pulin
Ichib qo'ygan er o'shadir(?)
Taqvim kunim sanayverdi,
Yurak unim sanayverdi,

Kunim-tunim sanayverdi,
Unim-bunim sanayverdi.

Yoki so'zga, yoki sizga,
Shahardagi oppoq qizga –
Boshqa-boshqa, o'zga-o'zga
Oshiqligim sanayverdi.

Oh, daraxtga do'nmoqchiydim,
Hovlingizda unmoqchiydim.
Sizning o'sha qalbingizda
O'sha odam bo'lmoqchiydim...

Ko'zlar o'sha, qoshlar o'sha,
Hamon yulluq sochlar o'sha.
Boy kun sayin boy bo'ldi-yu
Hamda yupun ochlar o'sha.

Siz o'shasiz, men o'shaman,
Alamimga dard qo'shaman.
Hatto she'rda yangi so'z yo'q,
Hatto qushlar ochmas burgt!

Avval cho'g'-u keyin olov,
Minbarlarda maqtov-maqtov.
Qadam tashlab mayin-mayin
Umr o'tib ketar keyin.
Yashadingiz o'sha-o'sha,
Sizni ko'mar o'shandayin!

Xudoning berari to'zim-da qoldi,
Sevgilim, ketishing ko'zimda qoldi.
(Sen uchun dunyonи sevar edim men)
Va endi hamma gap o'zimda qoldi.

Nihoyat, botirib o'zimni g'amga,
Kulsam, o'xshamayman kulgan odamga.
Yig'lasam, ko'zyoshsiz yig'i tatirmi?
Hech zamон yupunlik yig'latadirmi?

Yoki bir kori-hol o'ylab top o'zing,
Masalan: daraxtning so'nggi xonishi.
Balki, yig'latardi quvragan kuzning
Bahorning yuziddan bo'sa olishi.

Balki, bolalarning uyqusin buzgan
Gumburak ovozi ko'zga yosh ilsa...
Yig'latgin, sevgilim, meni yig'latgin,
Yig'lamay yig'latgin, iloji bo'lsa.

Nahotki, botirib o'zimni g'amga,
Kulsam, o'xshamayman kulgan odamga.
Xudoga bir hovuch tilovatim yo'q –
O'lsam, o'xshamayman o'lgan odamga.

KOSAGUN SHOIRNING AYTGANLARI

(Xalqona)

*Go'rikboy aytdi:
Qirq bo'lmasa chortang bo'lар emish.
Mohiboy aytdi:
Sen, Go'rkti, gapni nima bilasан, seni
biy qilaman, o'zim kosагун bo'la
man, sering telpaging o'ng otaliq
bo'laди, mening telpagim chap otaliq
bo'laди, chortang bo'amiz...
"Kantut'mish" dostonидан*

Na Xayyomdan topdim orom,
O'v-y, dunyoning yuzi qursin.
O'ng yon telpak, ko targin jom,
Shahnozamiz, omon bo'lsin!

Qushlar janubga shaylandı,
"Yur!" deb tomimda aylandı.
Bilmədi, hijroning chekib
Janub qonimda aylandı.

Na do'stim bor, na raqqosa,
Xirom aylab jonioim olsa.
Qo'lingda tebranar kosa,
Chap yon teipak, ko'tar endi

Görkiboyim, Mohiboyim –
Tirik yetimga kuygayman.
Bu nomard dunyoda doim
Tirikligimga kuygayman.

Sevib oydinlashib ketgan,
Ul oy, oyni tashib ketgan,
Endi qattiqlashib ketgan
Sho'rik betimga kuygayman.

Onam "Alpomishim" derdi,
"O'zing Humo qushim" derdi.
Byi telpagim, ko'tar endi,
Men o'mishinga kuygayman.

O, dilbarim, nahot sening
Kechmoq so'nggi chorang bo'lar.
Uchov tel'paklarim,
mening
bilan
qo'shsang,
chor tang bo'lar.

Kuntug'mishday qalandarman,
Ovozimni unim bo'g'mish.
Qaysi kuni bo'za topsam,
O'sha kuni kumin tug'mish!

(Xalqona)

Majnunga Layli berding,
Nima tufayli berding?
Xudojon, nechun menga
Bir hijron sayri berding?

Tohirning Zuhrosi bor,
Bir-biriga rozi bor.
Hattoki ishq berarda
Toshi bor, tarozi bor.

Imdod tilab termuldim,
Jilab-jilab termuldim.
Shafqat bilmas ekan u,
Chidab-chidab termuldim.

Boysarining g'ururi,
Go'ro'g'lming go'ri bor.
Boybo'rining huzuri –
Alpomishday uli bor.

Yo mening qismatimda
Maston kampir qo'lli bor.
Endi omon-omonda,
O'tkir-o'tkir zamonda,
Quyosh chiqar tomonda
Telbalarining sho'ri bor!

QISMAT

Qushda makon bor der-ay,
Mudom janub sari shay...
Bitta shoir tug'ilsa,
Har makondan haydalgay.
She'rga ko'char g'am-g'ussa,
Ko'chalar vatan bo'lsa.

Kapalakday o'ynoqi,
Bir pul hayot qiy nog'i.
Qani ko'nglingga ko'chsa,
Ul qizning yuzin oqi.
Avval achchiq choy suzsa,
Qo'lchalar vatan bo'lsa.

49

Ketmon urgan bolaming
Hali orzulari keng.
U tongda reja tuzsa,
So'ng mag'ribda umidning
Bir quyoshi qon qussa,
Ufq qadar vatan bo'lsa.

Vatan bo'lsa xiyobon
To'ridagi o'rindiq.
O'rindiqqa ming marta
Moslashmoqqa urndiq.
Jonon biltmay holimni
Noz aylasa, ko'z suzsa,

Muhabbat uvolimi,
Bo'salar vatan bo'lsa.
Ota, katta dalangda,
Yasholmadim panangda.
Aytding: g'o'za ummaydi
Sening noshud tanangda!
Netay, axir bujangda
Nomard ham bitim tuzsa.
Mayli, o'tay ko'changda...
Qismat darbadar bo'lsa,
Vatan, bu - Safar bo'lsa.

HISOR TOG' ETAKLARIDA

Mendan xafa emishsan,
.Daraxtdagi qush aytди.
Chorrarahalar, bekatar,
So'nggi muylulish aytди.

Aytди yomg'fir ortidan
Bir dam porlagan quyosh.
Paltoining yengidan
Suv tomchilab turgan bosh.

Shamol ushlab sochimdan,
Yuzimga tortib shappat,
Aytdи avtobusiga
Pul topmagan muhabbat.

Axir, bu katta shahar,
Beparvo o'malaydi.
Bir tabassum qilsang gar,
Izmingga yo'rg'alaydi.

Bekorga yurma ranjib,
Uzr-ku, so'ramayman.
Bu toshbag'fir dunyoni
Qog'ozga o'ramayman.

Oqil daryo, oq daryo,
Oqib-oqib o'tyapmiz.
Biz burgutli tog'larga
Boqib-boqib o'tyapmiz.

Mendan xafa emishsan,
To'g'ri so'zlarim og'ir.
Soyaboningni yopsang,
Hammasin yuvar yong'ir.

TEATR HAQIDA SHE'R

Men tugadim.
Men tamom bo'ldim.
O'dligimdan qolmadi asar.
Teatrga kirib keldi u
Yuragidan Layjini yasab.

Teatr.
Sahna.
Olqish.
Men ishingga qo'yganman ruju.
Kerak edi ssenary yozish,
Menga juda kerak edi U!

Kitoblarga sarflab kuchimni,
Dardlarima boqmadim qyo.
Tamakidan oldim o'chimni,
Undan o'chim olardim go'yo.

Mana, mening so'zimni aytib
Raqibiga yuzlandi aktyor.
Yana xomush izimga qaytdim...
(Qorasini ko'rsatmadи yor.)

Men Majnunga sanfladim so'zim,
Otelloga ko'chirdim nafrat.
Goh so'kinib dunyonni buzzdim,
Uyg'onmadи undagi g'aflat.

Yer tepaman xonamda turib,
Kitoblarni otaman shiftga.
Nahotki u ketadi qurib!
Nahot kunim qoladi ipga!



ONA

Ayam Muhabbat Turxon qiziga

Har kuni tong saharlarlab
Ishga ketarding, ona.
Seni olib qolishga
Topolmasdim bahona.

Murg'ak edim va nimjon,
Ko'zlarim katta-katta.
Bo'yninga so'rg'ich osib
Tushanimidек suratda.

Yillar o'tdi oradan
Bahoriga tutib gul.
Men ham ketib boraman,
Bu - o'sha sen ketgan yo'l.

Ammo qaytmayman peshin
Yo qorong'u tushganda.
Ayoz qahratonlardan
Vujudim uvishganda.

Derazadan mo'lirab,
Yo'llarimga tikib ko'z.
Nahotki tushunmaysan,
Nahot bilmaysan hanuz.

Ikkimizni ikki yon
Sochib tashlar bu dunyo.
Topgan bahonalarni
Ochib tashlar bu dunyo.

Murg'ak edim va nimjon,
Lug'atimda to'rta so'z:
"Yaxshi
borgin,
oyijon,
Sog'indim..." –
vujudim muz!

Yonib ketmas varaqlar
Cho'g' solingan dodimga.
O'sha ko'cha, daraxtlar
Tushaverar yodimga.

Yodimga tushaverar
Derazanining torligi.
Murg'akkina yurakda
Hali mehr borligi.

Har kuni tong saharlab
Mehr tutarding, ona.
Meni uvvos yig'latib
Ishga ketarding, ona.

"Tez ket!
Bu tog'lar qo'yib yubormaydi seni..."
U. Azim

Ketdim, cho'ntagimda uch-to'rtta chaqa,
To'g'ri yuragimga tor keldi bu joy.
Borimni teng bo'ldim, ey Usmon og'a,
Onamga kuz qoldi, otamga Xudoy.

Cheksiz kengliklarni bahridan o'tdim,
Bag'rimdan yuliniib ingradi qishloq.
Qaytadan Tangriga manglayim tutdim,
Yoz! - dedim...

Be'k ALI

56

So'ngra qismatimga bitilgan shahar
Sirli xonimlarni etardi ko'z-ko'z.
Kechagi kunimdan edim bexabar,
Ertangi kunimni bilmasdim hanuz..

Ketdim, Yaratganga qilib tavakkal,
Ketmonga hushim yo'q, dalaga tobim.
Ukamga mol qoldi, akamga paykal,
Onamga kuz qoldi, otamga Robbim!

Jo'ralarga esa xaroba do'kon,
Yashirib pullagan arzon araqlar

Va gandiraklab kelib quchoqlagan on
Ozgina xijolat chekkkan daraxtlar.

Singlimga maktabi, opamga bolasi,
Qo'shmiharga qo'shni, yo'llarga yo'llar.
Qoldi Mamationning tilka-poras...
Nos chekib xotimi silagan qo'llar.

Men esa ketdim qichab qadamni,
Balki, qanotimni qoqayotirman.
Uch og'ayni botir, deydi odamni,
Og'a, aytgil endi qaysi botirman?

Goh otin oqsaydi, goh yo'llim chalkash,
Bir Kunim boy bo'lса, o'n kunim yupun.
Mana, yarim yo'lда tuyayapman g'ash,
Qishloqdan so'qqabosh ketganim uchun.

Ketdim.

Yo'q! Ketdi ul sarviqomat
Qolimga tutqazib dard, g'am-u alam...
Mayli, ketganlarga tilaymiz omad,
Biroq oson emas qolganlarga ham.

Ketdim...

SAFAR QOSHIG'1

Bu dunyoda gulim menin
Boshim safar sari og'gan.
Yomg'ir - ko'zyoshlarin sening,
Boshimga yog'gani-yog'gan.

Yaxshi-yomon yo'l doch kelar,
Yo'l dochning bag'ri tosh kelar.
Yo'l dochlardin yana nelar
Boshimga yog'gani-yog'gan?

Sen mushfiq, sen aftodahol,
"Holing ne?" deb berding savol.
Bundan ortiq yana ne hol
Boshimga yog'gani-yog'gan.

58

Ne gunohki, sazo bo'ldim,
Gul ishqida qazo bo'ldim.
Bu ohang qaysi bulbuldin
Boshimga yog'gani-yog'gan?

Boqsang ko'zimda alamlar,
Qani, sen-la kulgan damilar?
Bunda yetti yot odamlar
Boshimga yog'gani-yog'gan.

Furqatmidim - itday sarson,
Orzu qayda, maqsad qayon?

Biri pinhon, biri ayon
Boshimga yog'gani-yog'gan.

Demish: qaytish bo'lар oxir,
Ummonda ham bo'lар sohil,
Lek shungacha qancha johil
Boshimga yog'gani-yog'gan!?

Bu ko'chalar boshi so'qmoq,
Balaligim ko'nqli yumshoq.
Endi har kunda ur to'qmoq
Boshimga yog'gani-yog'gan.



Bek ALL

Ay yoshligim, chopqillarding,
Salom bersam, chap qo'llading.
Otamning bo'yinda qoldi
Orzusi ro'yob qo'llaring.

Ota, xarob bo'ldim butkul,
Ketolmadim sizdan baland.
Poyingizda suykalgan ul
Itda tole bizdan baland!

AYLANAR

Yomg'ir qorga aylanar,
Qish bahorga aylanar.
Kiyikday o'ynoqi qiz
Munis yorga aylanar,
Men erga aylanaman.

Suv bulutga aylanar,
Mehr sutga aylanar,
Ko'ksingday yig'ilgan g'am
Jum, sukutga aylanar,
Men sirga aylanaman.

Chumolicha jonim bor,
"Bolam" deb yiqqonim bor.
Bir piyola may bersang,

BIZDAN BALAND*(Dadam Nurali Eshonqul o'g'liga)*

Ko'p tasalli bermish do'stlar -
Dunyoda ne so'zdan baland?
Garchi tiyon termulsang-da,
Qaro qoshing ko'zdan baland!

Men istamay badar ketdim,
Istaganlar qadar ketdim.
O'z istagim anglayolmay
Qishloqdan har safar ketdim.

Sovuq urdi yo shonamni,
Ko'zlarida yosh onamni.
Ey, do'stlarim, peshonamni
Sho'ri bugun tuzdan baland.

Yo'ldan toyib borayapman,
O'zni koyib borayapman.
Karmonimda bir tanga yo'q,
Darddan boyib borayapman.

Qanday otash, qanday cho'g'san,
Olov tilli chirmovuqsan?
Sevgim janub, bunda yo'qsan,
Shimol bo'ldim muzdan baland.

MUNDARIJA

Zulfiya Mo'minova. Baxshiyona ovozingni eshtidim.	3
Samarqand.....	6
Men tug'ilgan qishloq haqida tasvir.....	8
Topolmasman.....	10
"Olis makonlarda bo'llib faromush..."	11
Og'ir savollari.....	12
Shoir emasdim unda.....	14
Uyga vazifa.....	15
Singlingma maktub.....	17
Mangu tonmoq qo'shig'i.....	19
Chumoli.....	21
Sendan xavotirman.....	22
O'z qovurg'an.....	25
Tengdoshlarim qo'shig'l.....	26
Iqror.....	28
Kuz.....	29
Tengqurlarimga maslahat.....	30
"Yozganim o'zimga..."	31
Men senga teatr qo'yib beraman.....	32
Bir yomg'ir yog'saydi.....	35
Shoir haqida afsona.....	37
Qizingma maktub.....	39
Gulijon.....	41
Anglash.....	43
"Xudoning berari to'zim-da qoldi..."	45
Kosagan shoirning ayrganlari.....	46
Telba qo'shig'l.....	48
Qismat.....	49
Hisor tog' etaklarida.....	50
"Menden xafa emishsan..."	51
Teatr haqida she'r.....	52
Ona.....	54
Ketdim.....	56
OZBEMISKON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZRILIGI BIZDAN BALAND AYLANAR	58
TOSHKENT VILYOYATI CHIRCHIQ DAHLAT PEGIZOG'KA INSTITUTI	61
AXBOROT RESURS MARKAZI	

"Temuriydan qonim bor!"
Deb sherga aylanaman.

O'v-v adashgan ruhimda
G'alat azob turadi.
Men qishloqda yo'g'inda
Otam ketmon uradi,
Men terga aylanaman.

Boylik qo'riganlar-u,
Baxtni qurganlar bilan,
Jannat talab so'fi-yu
Va do'zaxi g'ar bilan
Yer shariga chiqqolib,
Quyoshning atrofida
Men birga aylanaman.

Toshlar qunga aylanar,
Suv qultunga aylanar.
Qabrim boshida, bilim
Kimlar kimga aylanar,
Men yerga aylanaman.

UO'K: 821.512.133-1(081)
KBK: 83.3(50'zb)

A 49

Ali, Bek.

Men axir Senman! [matn]: *she'rlar* / B. Ali.
- Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. - 64 b.

Adabiy-badiiy nashr

Bek ALI

MEN AXIR SENMAN!

She'rlar

Muharrir: D. Mingboyeva
Badiiy muharrir: F. Ermatov
Sahifalovchi: N. Soatov
Musahihh: Sh. Hakimova

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABIYOT NASHRIYOTTI" MCH

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15, 1/90.
⌚ (98) 128-30-04. e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:
Offset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 $\frac{1}{32}$.
Offset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.0.
Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №346.

"AZMIR NASHR PRINT" MCH bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy

Бек АЛИ
"АДАБИЙОТ НАШРИЙОТИ" МЧҲ

Узбекистон йозувчилар ўйушмаси

"АЗМИР НАШР ПРИНТ" МЧҲ

Нашрийот ліцензијаси: АИ № АА 0043. 27.01.2020.

100129, Тошкент шаҳри, Марказ-15, 1/90.

⌚ (+98) 128-30-04. ел.мэйл: mashkhur-press@mail.ru

Босишга 20.11.2020-йилда рұксат етілді:

Офсет ког'оз. Ког'оз бишими: 70x90 $\frac{1}{32}$.

Офсет босма. Нисоб-нешрийот т. 2.0.

Адади: 10000 нусха. Буюртма №346.

"АЗМИР НАШР ПРИНТ" МЧҲ босмаконасига chop етildi.

100200, Тошкент шаҳри, Адам Раҳмат ко'часи, 10-уу

Bek Ali (Begali Eshonqulov)
1992-yil 6-iyunda Samarcand viloyati
ishtixon turmanida tug'ilgan. Ayni
paytda "Jamiyat" ijtimoiy-siyosiy
gazetasini mas'ul kotibi. She'rлari
Respublika nashrlarida e'lon qilib
kelinmoqda.



MEN AXIR SENMAN

BEK ALI

"ADAABIYOT"

NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6473-3-6

